

UO'T:635.61:631.52:631.8:631.55

**HIMOYALANGAN JOYLARDA O'TA ERTAGI TARVUZNING O'STIRISHGA
MOS NAV VA DURAGAYLARI VA ULARNI O'G'ITLASHNI
TAKOMILLASHTIRISH
SELECTING VARIETIES AND HYBRIDS OF VERY EARLY WATERMELON
SUITABLE FOR GROWING IN PROTECTED PLACES AND IMPROVING
THEIR FERTILIZER**

Ostonaqulov T. E

q.-x.f.d., professor,

Umirova D. M

doktorant, Qarshi davlat universiteti

Annotatsiya. Maqolada o'ta ertagi tarvuz moslanuvchan nav va duragaylarini vaqtinchalik himoyalangan joylarda uyaga turli organominerel o'g'itlar me'yorlari solinganda o'simlikning o'sishi, rivojlanishi, o'suv davri davomiyligi, tup va barg sathi shakllanishi, mahsuldorligi, hosildorligi va meva sifatini o'rganish yakunlari keltirilgan. o'ta ertagi tarvuzni vaqtinchalik plyonka ostida ajratilgan moslanuvchan Montana F₁, Talisman F₁ va Dolby F₁ duragaylarini o'stirishda har gektarga 10 tonna go'ng + N₁₂₅₋₁₅₀P₁₀₀₋₁₂₅K₆₂₋₇₅ kilogramm yoki har uyaga 1,0 kg go'ng + N_{13-15,8}P_{10,5-12,6}K_{6,6-8,0} gramm hisobida birgalikda berish orqali gektaridan 25-28 tonna va ziyod sifatli tovar hosil olingan.

Kalit so'zlar. Tarvuz nav va duragaylari, ko'chatlar, plyonkali vaqtinchalik himoyalangan joy, tup uya, o'g'itlar me'yorlari, o'sish, tovar hosil.

Abstract. The article presents the results of a study of the growth, development, duration of the growing season, formation of the bush and leaf surface, productivity, yield and fruit quality of early watermelon adaptable varieties and hybrids when applied to the nest in temporary protected areas with different rates of organomineral fertilizers. When growing the super-fairytale watermelon under temporary film shelters, the adaptive Montana F₁, Talisman F₁ and Dolby F₁ hybrids were applied at a rate of 10 tons of fertilizer per hectare + N₁₂₅₋₁₅₀P₁₀₀₋₁₂₅K₆₂₋₇₅ kilograms or 1.0 kg of fertilizer per hole + N_{13-15,8}P_{10,5-12,6}K_{6,6-8,0} grams,

resulting in a high-quality marketable yield of 25-28 tons per hectare and more.

Keywords. Watermelon varieties and hybrids, seedlings, temporary film shelter, bush nest, fertilizer standards, growth, marketable yield.

Kirish. Tarvuz xalqimizning asosiy oziq ovqat mahsulotlaridan biri hisoblanib, uning mevasi eti va shirasidan yallig'lanishga qarshi va o't suyuqligini haydashda, ateroskleroz, moddalar almashinuvi buzilishi, jigar va yurak-qon tomir tuzilishi kasalliklarini hamda kamqonlikni davolashda foydalaniladi. U odam organizmini zaharli moddalar va shlaklardan tozalaydi, xolesterin ajralib chiqishiga yordamlashadi. Tarkibida A, C, E va B guruh vitaminlari, magniy, kalsiy, fosfor, temir, natriy kabi elementlarni, 5-13% gacha qand saqlaydi. Undagi likopin moddasining mavjudligi turli nurlanishlarga, jumladan ultrabinafsha nurlariga qarshi kurashishda organizmga yordam beradi [2,5,6,7].

Respublika Davlat reyestrda tarvuzning 53 ta navlari qayd etilgan. Shundan 16 tasi mahalliy, qolganlari chetdan keltirilgan nav va duragaylardir. Ular asosan kechpishar va o'rtapishar bo'lib, tezpishar navlardan Mramorniy-2159, Dehqon, Fermer, O'zbekskiy 452 navlari mavjud [4].

Ertagi va uzluksiz tarvuz hosili yetishtirishda muayyan tuproq-iqlim sharoitiga moslashgan, tezpishar, stress omillarga chidamli, jadal hosil shaklantiradigan, sifatli tashiluvchan, saqlanuvchan nav va duragaylarni tanlashga, tuproqni mulchalash, ekinni ko'chatdan ekish, vaqtincha plyonka ostida o'stirish, himoyalangan issiqxonalarda yetishtirish kabilarini ishlab chiqishga ko'p jihatdan bog'liq.

Qashqadaryo viloyati ertagi tarvuz yetishtirish uchun qulay tabiiy iqlim sharoitlariga ega bo'lib, maxsus ixtisoslashgan klaster va fermer xo'jaliklari tashkil etilganligi va yetarli tajribaga egaligi bilan ajralib turadi. Mazkur sharoitda ertagi tarvuz yetishtirishni ko'paytirish va hosildorligini oshirishda moslanuvchan, jadal shakllanuvchi, noqulay sharoitlarga, kasalik va zararkunandalarga chidamli geterozisli duragaylarni ajratish, ularni o'stirishning maxsus usullari hamda agrotexnologiyasini ishlab chiqish bo'yicha izlanishlar o'tkazish ilmiy va amaliy jihatdan muhim ahamiyat kasb etadi.

Yuqoridagilarni inobatga olib, biz 2022-2024 yillar davomida Qashqadaryo viloyati Ko'kdala tumani "Soybo'yi" MFY Yaxshiyev Asadulla tomorqa yer xo'jaligi shartli sug'oriladigan och tusli bo'z tuproqlari sharoitida dala tajribasi o'tkazdik.

Material va uslublar. Tadqiqotning maqsadi - ajratilgan moslanuvchan o'ta ertagi tarvuzning 11 ta nav va duragaylar to'plamini va ulardan tanlangan moslanuvchan duragaylarini har uyaga turli o'g'it me'yorlari solinganda o'sishi, rivojlanishi, tup va barg sathi shakllanishi, paykal fotosintetik potentsiali, mahsuldorligi, umumiy va tovar hosildorligi va meva sifatini aniqlashdan iborat. Buning uchun o'ta ertagi tarvuz moslanuvchan duragaylari 4 ta o'g'itlash me'yorlari, ya'ni 1-variant bir gektarga 10 t hisobidan har uyaga 1,0 kg chirigan go'ng; 2-variant har uyaga 1,0 kg go'ng+ $N_{100}P_{80}K_{50}$ kg/ga hisobidan $N_{10,5}P_{8,4}K_{5,3}$, ya'ni ammoniy selitrasi-31 g, ammofos-17,5 g, kaliy xlorid-8,8 gramm; 3-variant har uyaga 1,0 kg go'ng+ $N_{125}P_{100}K_{60}$ kg/ga hisobidan $N_{13}P_{10,5}K_{6,6}$, ya'ni ammoniy selitrasi-38 g, ammofos-20 g, kaliy xlorid-10 gramm; 4-variant har uyaga 1,0 kg go'ng+ $N_{150}P_{120}K_{75}$ kg/ga hisobidan $N_{15,8}P_{12,6}K_{8,0}$, ya'ni ammoniy selitrasi-45 g, ammofos-24 g, kaliy xlorid-12 gramm solinib, taqqoslab o'rganildi.

Shunda nazorat variantida ($N_{150}P_{120}K_{75}$ kg/ga) har uyaga $N_{45}P_{24}K_{12}$ gramm o'g'itlar bo'lib, bir gektarda (280+70):2x60 sm sxemada, bir tup oziqlanish maydoni 1,05 m² bo'lsa, bir gektarda (1000m²:1,05 m²) 9520 tup bo'ladi. 3 va 4-variantlarda ushbu me'yor 25 va 50 % ga kamaytirildi. O'g'itlar ko'chatlar dalada ekish oldi uyalarga solindi, tuproqqa aralashtirilib, sug'orildi va ko'chat o'tkazildi. Har bir delyanka maydoni 35 m². Takrorlar soni 3 ta bo'ldi.

Tajriba uchaskasida barcha agrotexnik tadbirlar, kuzatish, o'lchash, hisoblash va tahlillar umumqabul qilingan uslublar va tavsiyalar asosida olib borildi [1,3,7].

Tadqiqot natijalari va uning muhakamasi. Kuzatishlarga ko'ra, unib chiqish plyonka ostiga ekilganda nav-duragaylarda 7-9 kunlari, birinchi chinbarg chiqarish unib chiqqach 13-14 kunlari, birinchi chinbarg chiqarishdan shonalashgacha bo'lgan davr navlarda 15-19 kun, duragaylarda esa 15-17 kunni tashkil etdi. Mevalashdan pishishgacha bo'lgan davr navlarda 16-21, duragaylarda 19-27 kun bo'lib, o'suv davri sinalgan navlarda 65-66 kunni, duragaylarda 62-73 kunni tashkil etdi. Eng tezpishar (62-65 kun) duragay Dolby

F₁, Krimstar F₁, Talisman F₁ bo'lib, nisbatan kechpishar duragaylar bo'lib – Oriji F₁, Super crimson F₁, Red star F₁ hisoblanib, o'suv davri 71-73 kunni tashkil etdi.

O'rganilgan nav-duragaylar o'simligi o'suv davri boshidanoq bosh poya uzunligi, asosiy poya va yon shoxlar soni bo'yicha keskin farqlanib, eng uzun bo'yli (211-228 sm), serpoya (4,1-5,3 dona) va shoxlangan (4,4-5,1 dona), palak Montana F₁, Talisman F₁, Super crimson F₁, Red star F₁, Dolby F₁, Galaktika F₁, Oriji F₁, Krimstar F₁, Hollar-Crimson Sweet nav-duragaylari bo'ldi.

O'simlikning barglanishi muhim morfologik belgi bo'lib, o'rganilgan nav-duragaylarda sezilarli darajada o'zgarib, o'suv davri boshida (13-15.04 da) bir tup palakda barglar soni 83-108 donani, 23-25 aprelda – 167-226 donani, 3-5 mayda – 241-313 donani, 13-15 mayda esa susayib 280-337 donani tashkil etishi aniqlandi. Jadal sur'atlarda barg shakllanishi 23-25 apreldan 13-15 maygacha kuzatildi. Eng kuchli barglanish o'suv davri boshidan boshlab (104-108 dona), o'suv davri oxirigacha (318-337 dona) – Montana F₁, Talisman F₁ duragaylarida, kam barglanish (272-286 dona) – Dehqon, Red star F₁, Super crimson F₁, Krimstar F₁ nav-duragaylarida ma'lum bo'ldi.

Palak va ildiz massasi o'suv davri davomida o'zgarib, eng baquvvat palak (1915-2026 g), ildiz (147,4-161,3 g) massasi o'rganilgan Montana F₁, Talisman F₁, Dolby F₁, Hollar-Crimson Sweet nav va duragaylarda qayd qilindi;

Qashqadaryo viloyati shartli sug'oriladigan och tusli bo'z tuproqlari sharoitida vaqtincha plyonka ostida o'ta ertagi tarvuz yetishtirishda Montana F₁, Talisman F₁, Dolby F₁, Krimstar F₁ duragaylarini, Hollar-Crimson Sweet navini keng joriy etish orqali har gektardan 22-26 tonna va ziyod biokimyoviy tarkibi va sifati yaxshi, ekologik sof tovar hosil olish imkonini berdi. Mazkur nav-duragaylar eng yuqori moslanuvchanlik koeffitsiyentiga (1,00-1,14) ega ekanligi aniqlandi;

Ajratilgan moslanuvchan ertagi tarvuz duragaylarida uyaga organik va mineral o'g'itlar birgalikda berilganda o'simlikning o'suv davri 3-5 kungacha uzaygani, natijada o'suv davri Dolby F₁ duragayida 68-73, Montana F₁ duragayida 70-75, Talisman F₁ duragayida 69-75 kunni tashkil etdi.

Ertagi tarvuz ajratilgan moslanuvchan duragaylari vaqtinchalik himoyalangan joylarda

turli o'g'itlar me'yorlarida, ayniqsa gektariga 10 tonna go'ng + $N_{125-150}P_{100-120}K_{62-75}$ kilogramm yoki har uyaga 1,0 kg go'ng + $N_{13,0-15,8}P_{10,5-12,6}K_{6,6-8,0}$ grammdan birgalikda qo'llanilib parvarishlanganda, o'simlik eng uzun poyali (205-222 sm), serpoyali (4,4-4,9 dona), shoxlangan (4,6-5,2 dona), barglangan (319-356 dona) yoki barg sathili (2792-2971 dm² yoki 26,4-28,3 ming dm²/ga) qayd etildi.

Turli o'g'itlar me'yorlarida ertagi tarvuz moslanuvchan duragaylari plyonka ostida o'stirilganda, tupning shakllanishi va mahsuldorlik ko'rsatkichlari o'suv davri davomida sezilarli o'zgarib, eng baquvvat palakli (2015-2038 g) va ildiz massali (149,9-162,5 g) o'simlik tuplari o'g'itlar gektariga 10 tonna go'ng + $N_{125-150}P_{100-120}K_{62-75}$ kilogramm yoki har uyaga 1,0 kg go'ng + $N_{13,0-15,8}P_{10,5-12,6}K_{6,6-8,0}$ grammdan birgalikda solinganda kuzatildi.

Tarvuz ajratilgan moslanuvchan nav-duragaylar hosildorligi gektaridan 19,2-28,3 tonnagacha farqlandi. Eng yuqori hosildorlik (25,9-28,8 t/ga) organomineral o'g'itlar gektariga 10 tonna go'ng + $N_{150}P_{120}K_{75}$ kilogramm yoki har uyaga 1,0 kg go'ng + $N_{15,8}P_{12,6}K_{8,0}$ gramm hisobida birgalikda berilganda olindi. Lekin, hosildorlikdagi farq, o'g'itlar 10 tonna go'ng + $N_{125}P_{100}K_{62}$ kilogramm yoki har uyaga 1,0 kg go'ng + $N_{13,0}P_{10,5}K_{6,6}$ gramm qo'llanilgan variantga nisbatan yuqori, ammo tajriba xatosi ($EKF_{05}=0,6-2,3$ t/ga) ichida bo'ldi.

Xulosa. Respublikamizning janubiy Qashqadaryo viloyatining shartli sug'oriladigan och tusli bo'z tuproqlari sharoitida o'ta ertagi tarvuzni vaqtinchalik plyonka ostida ajratilgan moslanuvchan Montana F₁, Talisman F₁ va Dolby F₁ duragaylarini o'stirishda har gektarga 10 tonna go'ng + $N_{125-150}P_{100-125}K_{62-75}$ kilogramm yoki har uyaga 1,0 kg go'ng + $N_{13-15,8}P_{10,5-12,6}K_{6,6-8,0}$ gramm hisobida birgalikda berish orqali gektaridan 25-28 tonna va ziyod sifatli tovar hosil olish imkonini berdi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Azimov B.J., Azimov B.B. Sabzavotchilik, polizchilik va kartoshkachilikda tajribalar o'tkazish metodikasi. – T.: “O'zbekiston milliy ensiklopediyasi”, 2002 (2006). - B.181-185.
2. Лебедева А.А. Арбуз. Москва.2001.-С.32.

3. Белик В.Ф. Методика опытного дела в овощеводстве и бахчеводстве. Москва. 1992. –С.320.
4. O‘zbekiston Respublikasi hududida ekish uchun tavsiya etilgan qishloq xo‘jalik ekinlari davlat reyestri. Toshkent, 2025. -B.98.
5. Xalimova M.U. Qovun va tarvuz yetishtirish. Toshkent.2021.-B.87
6. Ostonaqulov T.E., Zuyev V.I., Qodirxo‘jayev O.Q. Mevachilik va sabzavotchilik (Sabzavotchilik). Toshkent. Navro‘z. 2019. -B. 552
7. Ostonaqulov T.E., Buriyev X.Ch., Amirov X.S. Polizchilik. Darslik. Toshkent. 2023.-B.252.